

JAMIYATDA OBYEKTIV ADOLAT ME'YORI, MOHIYATI PRINSIPLARI

Maxmudov Izzatillo Ne'matilloevich

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17627215>

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy adolatning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalaridagi obyektiv va subyektiv jihatlari tahlil qilinib, unda iqtisodiy adolatning ta'minlanishi insonning moddiy farovonligi va siyosiy faolligini oshirishi, siyosiy prinsiplarga amal qilinishi esa shaxsning siyosiy yetukligini shakllantirishi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy adolat, jamiyat, demokratiya, insonparvarlik, oshkoralik, korrupsiya, byurokratiya, tendensiya.

Iqtisodiy sohadagi obyektiv adolat prinsiplarining ro'yobga chiqishi shaxs moddiy boyliklarining oshishiga, bo'sh vaqtning ko'payishiga va oxir-oqibatda o'z-o'zini siyosiy jihatdan tarbiyalashga zamin yaratadi. Obyektiv adolat ijtimoiy prinsiplariga amal qilinganida esa shaxsning davlat siyosatidan va ijtimoiy tuzumdan qoniqishi kuchayib boradi. Buning intihosida uning siyosiy fazilatlarini shakllanib va rivojlanib boradi. Nihoyat, adolatning siyosiy prinsiplari shaxs siyosiy malakasining oshishiga, siyosiy huquqlarining kengayishiga va shu kabilarga sabab bo'ladi.

Jamiyatda erishilgan obyektiv adolat me'yori, mohiyati prinsiplarda jam bo'ladi. Ushbu prinsiplar ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oladi. Xususan, iqtisodiyotdagi ijtimoiy adolat prinsiplari quyidagilardan iborat:

- insonni inson eksplutatsiya qilishining oldini olish;
- munosib turmush sharoiti yaratish;
- mehnat faoliyatining maqsadga muvofiqligini ta'minlash.

Ijtimoiy sohada:

- mehnatdan manfaatdorlikni vujudga keltirish;
- daromadlar deklaratsiyasini joriy etish;
- asossiz imtiyozlarning oldini olish.

Siyosiy sohada:

- byurokratizm va korrupsiyaga qarshi kurash;
- oshkoralik;
- voqealardan aholini xabardor qilishni kengaytirish va shuning asosida kompetentlikni tarbiyalash.

Ma'naviy sohada:

- ijtimoiy ong sohasidagi deformatsiyalarning oldini olish;
- shaxsni yolg'on maqsadlarga bo'ysundiruvchi ijtimoiy illatlar bilan kurashish va hokazolar.

Ko'rsatilgan prinsiplarning buzilishi fuqarolar tomonidan og'ir baxtsizlik sifatida baholanadi. Chunki, Immanuel Kant yozganidek, "hech narsa bizni adolatsizlik kabi iztirobga sola olmaydi: boshimizga tushgan boshqa kulfatlar uning oldida hech gap emas" [1].

Obyektiv adolatning shakllanganligi darajasini namoyon qiluvchi prinsiplarning inson ongidagi in'ikosi subyektiv adolatni tashkil etadi. Subyektiv adolat eng avvalo hissiylik va aqliylik birligidan iborat. Bundan tashqari, unda ijtimoiy faoliyatga bo'lgan ehtiyoj ham o'z ifodasini topadi. Shuning uchun Platon adolatni uch asos – fahm-farosat, ruhan sog'lomlik va jasorat qorishmasi sifatida ta'riflagandi [2].

Inson turli voqea va jarayonlarga adolat nuqtai-nazaridan baho berar ekan, eng avvalo, ijtimoiy adolatning hissiy tomoniga tayanadi. Shuning uchun bir vaqtning o'zida ijtimoiy adolat haqida bir necha tasavvurlar mavjud bo'lishi ham mumkin. Masalan, Sovet hokimiyati yillarida ikki asosiy tasavvur ildiz otgan edi. Birinchisi – barchani tenglashtirish haqidagi an'anaviy tasavvur bo'lsa, ikkinchisi – moddiy boyliklarni mehnatning xarakteriga qarab taqsimlash haqidagi tasavvur ("ko'p va og'ir mehnat qilgan kishigina yaxshi yashashi kerak") edi. Boz ustiga, ijtimoiy adolat haqidagi etakratiyaga xos bo'lgan tasavvurlar xalqqa singdirib borilar edi. Shu nuqtai nazardan adolat prinsiplarini qo'pol buzish odat tusiga kirgan jamiyatda adolat xususida nihoyatda ko'p gapirilganining hech ajablanarli joyi yo'q. Ajablanarlisi shundaki, totalitar jamiyat sharoitida mavjud bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni, huquqiy qoida va axloqiy normalarni odatiy bir hol sifatida qabul qilinardi. Darhaqiqat, J.J. Russo yozganidek, "qullar o'z zanjirlari tufayli barcha narsadan, hatto undan qutulish istagidan ham judo bo'ladilar" [3]. Bunday sharoit shaxs siyosiy ijtimoiylashuvi jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shaxs voqelikni adolat ideallari bilan solishtirib, ular orasidagi moslik va tafovutni aniqlab boradi. Agar yaqin kelajak haqidagi bashorat natijalari kishilar ongidan joy olgan adolat idealiga mos tushmasa, jamiyatda tushkunlik kayfiyati ildiz ota boshlaydi. Bunday kayfiyatni islohotlar kutilgan natijalarni bermaganida, imkoniyatlar behuda boy berilganida, so'z bilan ish o'rtasida tafovut vujudga kelganida, adolat haqida ko'p gapirib turilgan bir paytda adolatsizlik yuz berganida kuzatish mumkin. Mazkur kayfiyat oxir-oqibatda total frustratsiyaga olib keladi. Masalan, 1991-yilda Rossiyada o'tkazilgan sosiologik tadqiqot yakunlariga ko'ra, "Ertangi kunga ishonch bilan qaray olasizmi?" – degan savolga respondentlarning 68 foizi "yo'q" deb javob berdilar [4]. Bu kishilar adolat ideallarining voqelikka aylanishiga ishonmaganlaridan dalolat beradi.

Mustaqillikning ilk yillaridayoq vaziyat o'zgara boshladi. Xususan, 1995 yilda professor E.Bobomurodov o'tkazgan sotsiologik tadqiqotlarda o'qituvchilarning 59 foizi, ishchi yoshlarning 56 foizi, qishloq yoshlarining 52 foizi, ijodiy yoshlarning 60 foizi O'zbekiston Respublikasi tez orada jahonning taraqqiy etgan mamlakatlari darajasiga ko'tarilishiga ishonch bildirdilar [5].

Yoshlarning kelajakka ishonchi ortib borayotgani mamlakatimiz uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki yurtimizda istiqomat qilayotgan aholining 41 foizini 15 yoshgacha bo'lgan yigit va qizlar tashkil etadi. Taqqoslash uchun aytsak, bu raqam Germaniya, Fransiya, Angliya, Daniya va Shvesiya kabi mamlakatlarda 15-19 foizga yetadi [6].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni taqqoslasak, kelajakka ishonch tuyg'usi barpo etilayotgan jamiyat haqidagi bilimlarning shakllanganligi darajasiga bog'liq ekani aniq bo'ladi. Fuqarolarning davlatga ishonchi ortib borayotgani haqida gapirib o'tdik. Davlat fuqarolarning tinchligi, xavfsiz turmushini ta'minlash orqali ana shunday ishonchni qozondi. Biroq kelajakda fuqarolarning ishonchini qozonish uchun ularning farovon hayoti ta'minlanishi kerak. Mamlakatimiz Prezidenti I.Karimovning 1999-yildagi ko'plab nutq va ma'ruzalarida mazkur fikrning takrorlanishi ham bejiz emas, albatta. Afsuski, bugungi kunda o'zbek kishisining o'rtacha oylik maoshi jahondagi eng kam daromad miqdoridan 3-4 barobar kam. Ustiga ustak, keyingi yillarda respublikamizda yalpi ichki mahsulotda ham, milliy daromadda ham mehnat haqi salmog'i pasayib borayapti. Xususan, 1990-1996 yillarda milliy daromadda bu salmoq 73,5 dan 22,3 foizgacha qisqargan [7].

Xulosa shuki, insonparvar, demokratik jamiyat qurish nazariyasining targ'ib va tashviq etilishi fuqarolarning kelajakka ishonchini kuchaytiradi. Kelajakka ishonch bilan boqqan fuqaroda esa siyosiy fazilatlarning shakllanishi samarali bo'ladi. Shaxs siyosiy ongining shakllanishi, faoliyatining faollashuvida ijtimoiy adolat funksiyalarining ahamiyati beqiyosdir. Chunki har qanday fuqaroning siyosiy ongi, xususan uning siyosiy tuyg'ulari, siyosiy tafakkuri, siyosiy bilimlari, siyosiy qarashlari, siyosiy qadriyatlari jamiyatdagi adolat prinsiplariga mos ravishda shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Кант И. Сочинения в 6-и томах. - М.: Мысль, 1964. Т.2. - С.201.
 2. Платон. Законы. Соч. в 3-х томах. - М: Мысль, 1972. Т.3. Ч.2. - С. 93.
 3. Руссо Ж.Ж. Об общественном договоре, или Начало политического права. -М.: 1906. - С.17.
 4. Заславская Т.И. Социальная справедливость: шесть лет спустя// Свободная мысль. - 1992. - №1. - С.31.
 5. Бобомуродов Э. Бугунги кун ва ёшлар // Фан ва турмуш. - 1996. - №5. - Б.8.
 6. Хоназаров Қ. Рақамлардаги умидбахшлик // Иқтисод ва ҳисобот. - 1998. - №3. - Б.65.
- Жўраев Т. Манфаатлар уйғунлиги // Иқтисод ва ҳисобот. - 1998.- №7. - Б.52.